

"KUNTUG'MISH" DOSTONIDA MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Jumayeva Dilafro'z Orifjon qizi
Termiz davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada "Kuntug'mish" dostonida mavjud lingvomadaniy birlik, maqollarning lingvistik, semantik jihatlari tahlilga tortildi. Misollar yordamida ushbu birliklarning ijtimoiy, amaliy, madaniy ahamiyati yoritildi.

Kalit so'zlar: maqol, lingvomadaniy tahlil, semantik tahlil, komponent, paremiologik birliklar.

Hozirgi tilshunoslik fani tilning fikr almashinuv quroligina bo'lib qolmay, hislar ifodalash qobiliyatiga ega ekanligini ham tan oldi. Badiiy matn tahlilining tavsifiy jihatlaridan biri shundaki, lingvomadaniy tahlil, ya'ni matnni madaniyat hodisasi sifatida o'rganish, ko'rib chiqish, hamda madaniy axborotni til belgisi deb qarab uni butunligicha matnda idrok etish, mantiqiy-falsafiy mushohada yuritish muhim o'rin egallaydi. Lingvomadaniyatning tahlil obyekti sifatida badiiy matn haqida birinchi eslatma G.V.Stepanov, D.S. Lixachevlarning nazariy izlanishlarida uchraydi. "Madaniyat – fikrlash – til – so'z – nutqni tushunish, bularning barchasi matn orqali amalga oshiriladi", - deydi S.V.Ivanova. V.N.Teliyaning fikricha esa "lingvomadaniyat etnolingvistikaning tarkibiy qismidir. Biroq lingvokulturologiya ham, etnolingvistika ham o'z mohiyatiga ko'ra alohida fanlardir".

Paremalar sirasiga kiruvchi maqol va matallar xalq ijodiyotining bebaho durdonasi bo'lib, xalqning qadimdan sayqal topib shakllanib kelayotgan tajriba mevasidir. Milliy madaniy urf-odatlar hamda insonning tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabatlari maqol va matallarda ixcham shaklda aks etgan. Bizga ma'lumki, o'zbeklar, nafaqat o'zbeklar balki, jamiki musulmon xalqlari diniy-tarbiyaviy, mifologik, madaniy jihatdan ham Allohga va uning Farishtalariga iymon keltirib, boshiga tushgan baxt va baxtsizlik, yaxshi va yomon kunlarni Allohning yozgan taqdiri sifatida bilishadi masalan, "Kuntug'mish" dostonida keltirilgan "Haq saqlasa balo yo'q, Haq qarg'asa davo yo'q" (42-bet) maqolini ushbu ta'rifning yaqqol misoli sifatida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari "Kuntug'mish"da "O'zingdan kattani uchratsang pir bil, o'zingni er bilsang, birovni sher bil" maqoli milliy madaniyatimizda mavjud bo'lgan kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish ruhidagi parema bo'lib, ota-bobolarimiz qadimdan bizga uqtirib kelgan tarbiyaning maqolda aks etishidir.



“Yolg‘iz farzand – yovdan yomon” maqoli esa “Kuntug‘mish”, “Qo‘ng‘iryot” dostonlarida bir necha o‘rinlarda uchraydi, xalqimizning qaysidir ma‘noda serfarzand, bolajon ekanligiga ishora qiluvchi yana bir misoldir. Nimagaki, qadimdan o‘zbek oilalarida farzandlar ko‘p bo‘lgan, deyarli har bir oilada eng kamida besh, olti nafar farzand bo‘lgan. Va ular bor orzu-niyatlari, umid-u intilishlarini shu farzandlariga bog‘lashgan. Balki, shu jihatdan ham yolg‘iz farzand – yovdan yomon deyishgan. Chunki, baxtsiz hodisa, falokat yuz bersa yoki boshqa yurtga safar qilgan taqdirda, yolg‘iz farzandning sog‘inchi, o‘y-u xayollari ularni o‘rtagan. Yovdan keladigan talafot, azob-uqubatga qaraganda ham yomonroq holatga tushirgan. Shu boisdan bo‘lsa kerak, bolajon, ko‘pni ko‘rgan xalqimiz shu maqolni qo‘llashgan hamda ushbu misol orqali bolani yaxshi ko‘rish, serfarzandlilik milliy-madaniy jihatlari aks ettirilgan. Badiiy matnlarda o‘zbek xalqining milliy madaniyatini, lingvomadaniyatini o‘zining mazmunida ifoda etgan juda ko‘plab paremiologik birliklar qo‘llaniladi. Shu jumladan dostonlarda ham o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish maqollar o‘zbek xalqining lingvomadaniy birligi sifatida ko‘plab o‘rinlarda uchrashini yorqin namunasini ko‘rib chiqdik.

Avloddan avlodga, asrlardan asrlarga o‘tib, sayqallanib, ma‘noviy boyib, mazmunan teranlashib kelgan paremiologik birliklar – maqollar, matallar, aforizm kabi hikmatli so‘zlarning o‘rni hamda ahamiyati cheksiz.


Ular har bir xalqning mentalitetiga xos milliy leksikasi mantiqiy ma‘no va mantiqiy xulosalari mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy matnlarda o‘zbek xalqining milliy madaniyatini, lingvomadaniyatini o‘zining mazmunida ifoda etgan juda ko‘plab paremiologik birliklar qo‘llaniladi.

Shu jumladan dostonlarda ham o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish maqollar o‘zbek xalqining lingvomadaniy birligi sifatida ko‘plab o‘rinlarda uchrashini yorqin namunasini ko‘rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati / D. Xudoyberganova. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 26.
2. Muhammadjonova M. Turli tizimdagi tillarda lingvistik birliklar tadqiqi. Maqola. Farg‘ona davlat Universiteti. Ingliz tili va adabiyot fakulteti.
3. Kuntug‘mish. Ravshan. – T.: Sharq, 2011. – 368 b.
4. Usmonova Sh. “Lingvokulturologiya”. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 16.





5. Jo‘rayev N.N. Badiiy matnlarni lingvomadaniy tahlil qilishning nazariy asoslari.: Fil.fanl.bo‘yicha (PhD) doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... – Termiz, 2023. – B. 66.

